

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**



**PEDAGOGIK DEANTOLOGIYA
FANING O'QUV DASTURI
(1-kurs)**

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

**Magistratura
Mutaxassisligi:** 70110101 - Pedagogika nazariyasi va tarixi
(faoliyat turlari bo'yicha)

Jizzax – 2022

1

<p>8. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.</p> <p>9. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-moddada.</p> <p>10. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.</p> <p>10. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2001.</p> <p>11. Подласый И. П. Педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.</p> <p>12. Лихачев Б. Т. Педагогика. - М.: Юрайт, 2003. 13. Сластенин В.А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Общая педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.</p> <p>14. Тохтоходжаева М., Нисhonova S., Hasanboev J., Madbyarova S., Kaldibekova A. va boshq. Pedagogika. - T.: Moliya, 2008. Izoh: Qo'shimcha adabiyotlar boshqa ilmiy kutubxonalarda mavjud.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari:</p> <p>1. www.ziyoue.uz.</p> <p>2. www.edu.uz.</p> <p>3. www.google.uz.</p> <p>4. www.gov.uz.</p>	<p>9. Pedagogik deantologiya fanining o'quv dasturi Jizzax davlat pedagogika universiteti Kengashining 202__ yil "___" __dagi ___-sonli Kengash qarori bilan tasdiqlangan.</p> <p>10. Fan/modul uchun ma'sullar: Rahmatova F Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</p>	<p>11. Taqrizchilar: R.Yormatov JDPU Magistratura bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent N.S.Qiyomov Samarqand davlat universiteti, Pedagogika kafedrasini professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)</p>
---	---	--

1	Fan/Modul kodi 351PDT04	O'quv yili 2022-2023	Semestr I	Kreditlar 4		
	Fan/Modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4		
	Pedagogik deontologiya	Hammasi	Ma'ruza	Amaliy	Seminar	Mustaqil ta'lim
	1-semestr	120	60	30	30	60
	Jami	120	60	30	30	60
2.	<p>I. Fanning mazmuni - Fanni o'qitishning maqsadi – magistrnlarni pedagogik deontologiya faniga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.</p> <p>Fanning vazifasi – magistrnlarni pedagogik deontologiya fanining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jihatdan pedagogik-psixologik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash; pedagogik deontologiya fanining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish; pedagogik deontologiya faoliyatlarini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Pedagogik deontologiya fanining maqsadi va vazifalari. (2 soat)</p> <p>“Deontologiya” tushunchasi. Deontologiyaning printsiplari. Pedagogik deontologiya – kasbiy xulq-atvor haqidagi fan. Pedagogik deontologiya fanining maqsadi va vazifalari. Fanning boshqa pedagogik fanlar bilan aloqadorligi.</p> <p>2-mavzu. Pedagogik kompetentlik, professional kompetentlik va o'qituvchi kasbiy etikasiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar. (2 soat)</p> <p>Pedagogik kompetentlik, professional kompetentlik. O'qituvchi kasbiy etikasiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.</p> <p>3-Mavzu: Pedagogik deontologiya fanining nazariy – metodologik asoslari. (2 soat)</p> <p>Pedagogik deontologiya faniga metodologik yondashuvlar. Kompetentsiya nuqtai nazaridan yondashuv, fanlararo yondashuv, ma'lumotli yondashuv.</p> <p>4-Mavzu: Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik deontologiyaning rivojlanishi. (2 soat)</p> <p>Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimida pedagogik deontologiyaning ahamiyati.</p>					

7.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p> <p>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (jufflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p>Yakuniy nazorat</p> <p>Yakuniy nazorat yozma shaklida o'tkaziladi. Talabanning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>
8.	<p>VIII. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna. Askarov Abror Davlatmirzaevich. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent-2019</p> <p>2. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M. B “Umumiy pedagogika”. Toshkent – 2019</p> <p>3. D.E. Toshtemirov, Ya.A. Nurumbekova, Yo.A. Faxriddimov. Umumiy pedagogika. Oliy o'quv yurtlarining barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik. Guliston-2022</p> <p>4. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. - T.: 2008.</p> <p>5. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiq asoslari. - T.: 2005.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish korsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni.</p>

Pedagogik deontologiyaga oid ilmiy izlanishlar.

5-mavzu. Mamlakatimizda pedagogik deontologiyaning rivojlanishi. (2 soat)

Mamlakatimizda pedagogik deontologiyaning rivojlanishi. Bu sohada olib borilayotgan ishlar holati.

6-Mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari. (2 soat)

Kompetentsiya tushunchasi; kompetentsiya nuqtai nazaridan yondashuv, kompetentsiya egasi, bu atamaning mazmuni. Kompetensiyaning jamiyatdagi o'imi. Kompetentsiya lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida "munosib", "to'g'ri keladi" yoki "mos keladi" ma'nolarining o'ziga xos jihatlari

3. 7-Mavzu: O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish tizimi. (2 soat)

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tizimi – pedagogik mahorat orqali namoyon bo'lishi. Kasbiy tayyorgarlik modelini shakllantirish. Fakt va hodisalarni nazariy jihatdan tahlili. Tahlil etishni nazariy darajaga olib chiqish mahorati. Kasbiy kompetentsiya va uning shakllanish bosqichlari. Shaxsiy kompetentsiya; maxsus va didaktik kompetentsiya; kommunikativ kompetentsiya; informatsion kompetentsiya; muammolarni hal eta olish; rivojlaniruvchi muhitni yaratish.

8-Mavzu: Pedagogik mahorat va kompetentsiya mezonlari. (2 soat)

Pedagogik mahorat; kasbiy tayyorgarlik; professionalizm; pedagogik kompetentsiya; kasbiy kompetentsiya; zamonaviy pedagog; zamonaviy o'qituvchi; zamonaviy model; pedagogik kompetentsiya modeli; professional tayyorlashning zamonaviy modeli. Pedagogik professionalizm. Professionalizm – o'z kasbining ustasi degan ma'noni beradi. Kompetentsiya esa o'z kasbiga munosib, o'z kasbini har tomonlama uddalay oladi degan ma'noni anglatadi. Pedagogik kasbiy kompetentsiya professionalizm bilan mahoratli yoki pedagogik mahorat O'rtasida turuvchi tushuncha ekanligi. o'zbek tilida "professionalizm"ni "master"– "usta", "masterstvo" – "mahorat" so'zlari xalqaro andozalardan kirib kelgan "professionalizm" va "kompetentsiya" tariqasida qo'llayshni maqsadga muvofiq deb belgilanishi.

Professionalizimga erishish uchun istak, izlanuvchanlik, doimo o'qish- o'rganishga tayyorgarlik va o'z mahoratini oshirib borish kabi qobiliyatlar zarur bo'ladi.

Talabalar o'z fikrlarini taqqoslashadi, baholashadi va bilimlarini mustahkamlashadi.

2) «Zinamazinga» usuli. Talabalar mavzu bo'yicha yakka tarzda fikrini grafik ifoda etishadi, keyin guruhda muhokama etishadi. Guruhlar taqdimoti o'tkaziladi va grafik materiallar doskaga mantiqiy pog'onalar tarzida ilib boriladi.

3) «Charxpalak» usuli. Kichik guruhlar o'z tarqatma materiallaridagi vazifani bajarib, charxpalak aylanishi bo'ylab bir- biriga uzatishadi, har bir guruh boshqalarning ishiga tuzatish kiritadi va oxirida o'zlariga qaytib keladi. Guruhlar o'z ishini tuzatishlar bilan takomillashirgan holda taqdimot qilishadi.

4) «Bumerang» usuli. Talaba bajargan ishini avval o'z kichik guruhida, keyin boshqa kichik guruhda muhokama qiladi, so'ng yana o'z guruhiga qaytib kelib umumlashiradi. Oxirida guruhlar taqdimoti o'tkaziladi.

5) «Rezyume» usuli. Kichik guruhlarda muammolar o'rganilib, tahlil qilinadi va xulosa yozma ifoda etiladi. Taqdimotda xulosa ko'rsatilmaydi, boshqa talabalar taqdimotga nisbatan fikrlari hisobga olinib yangi xulosa shakllantiriladi va avvalgi yozma xulosa bilan taqqoslanadi.

6) «Muammo» usuli. Dastlab muammoli videolavha ko'rsatiladi. Kichik guruhlar namoyish vaqtida muammolarni qayd qilib borishadi. Keyin ularning echimlarni o'zaro almashiradi va tuzatish kiritishadi. Oxirida muammo bo'yicha jamoaning xulosasi shakllantiriladi.

7) «Labirint» usuli. O'qituvchi murakkab vaziyatni bayon qiladi va jamoa bo'lib undan chiqish yo'li topiladi. Keyin kichik guruhlarda boshqa muammoli vaziyatlar o'rganiladi va taqdimot o'tkaziladi.

8) FSMU usuli. Talabadan o'z fikrini quyidagi tartibda ifodalash talab qilinadi: F - fikrini bayon qilish; S – fikriga sabab ko'rsatish; M – sababni asoslovchi misol keltirish; U - fikrini umumlashtirish.


9) «Muloqot» usuli. Kichik guruhlarda alohida mavzular o'rganiladi va turli materiallar (video, foto, sxema, ilmiy dalillar) tayyorlanadi. Keyin kichik guruhlar o'rtasida muloqot bo'lib o'tadi. O'qituvchi kichik guruhlar taqdimotini maqsadli yo'naltirib boradi va oxirida o'z munosabatini bildiradi.

Ular ham o'z navbatida tarmoqlarga ajralishi mumkin.

Venn diagrammasi O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshash va farqli jihatlarni topish, tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Diagrammadagi doirachalar alohida ob'ektni, kesishmalar esa ularning o'xshash va bog'liq jihatlarni bildiradi. Talabdan ob'ektlarning alohida (1-3), o'zaro bog'liq (4-6) va umumiy (7) jihatlarni yozma ifodalab berish talab etiladi.

4) SWOT-tahlil. Bu organayzer talabalarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi: Strengths – ob'ektning kuchli jihatlari; Weakness – kuchsiz jihatlari; Opportunities – tashqi imkoniyatlari; Threats – tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga ob'ektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

5) "Baliq skeleti" sxemasi. Bu organayzer tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Baliq skeletining bosh qismiga – mavzu, yuqori qismiga – muammolar, pastki qismiga – tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



6) Aqliy hujum usuli. Bu usul dars mavzusiga oid savolga javob topish maqsadida g'oyalarni jamlash va saralash uchun qo'llaniladi. Har bir talaba o'zining shaxsiy g'oyalarni ilgari suradi. Bosqichlari – muammoli vaziyat paydo qilish; yechimni topish uchun g'oya, fikr berish; yechimlar taqdimotini eshitish; yechimlarni solishtirish va tanlash; xulosa qilish.

7) Esse. Bu mavzu bo'yicha cheklangan hajmda yoziladigan insho hisoblanadi. Esseda talaba o'quv material bo'yicha o'zining shaxsiy fikrini erkin ifoda etadi.

Interfaol o'qitish usullari (Activity)

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol o'qitish usullari qo'llaniladi. Bu usullar talabalarda jamoada ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, mulohaza madaniyati va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Quyida fan xususiyatlariga xos ba'zi usullar bayon etilgan.

1) «Tushunchalar tahlili» usuli. Talabalar tushunchalarni dastlab yakka tarzda va keyin jamoada muhokama qilishadi. O'qituvchi jamoaning fikrini yo'naltirib turadi va oxirida ekranga atamalarining izohini chiqaradi.

4.

9-Mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari. (2 soat)

Mamlakatimizda va boshqa bir qator xorijiy mamlakatlarda "Pedagogika", "Pedagogik psixologiya", "Pedagogik mahorat asoslari" va nihoyat "Pedagogik kompetentsiya" kabi o'quv kurslari mavjud bo'lib, ular bir-birini ko'p hollarda takrorlaydilar. Ularning barchasi tomonidan ilgari surilayotgan nazariyalar pedagogik kompetentlik fanida to'laligicha berilgan.

10-Mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar. Professiogramma. (2 soat)

Professiogramma – kasb tavsifnomasi. Kasb egalarini tayyorlash bo'yicha davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini hamda o'quv fanlari bo'yicha dasturlar yaratishda professiogrammalarning ahamiyati. Professiogramma: oliy ta'lim o'qituvchisi vazifalari; oliy ta'lim o'qituvchisi faoliyatining mazmun-mohiyati; noo'quv ishlari; o'quv-metodik ishlari; o'qituvchining ilmiy-tadqiqot ishlari; o'qituvchining tarbiyaviy ishlari; tashkiliy-metodik ishlari; o'qituvchi shaxsiy tavsifi va o'ziga xosligi; o'qituvchining maxsus tayyorgarligi; maxsus bilimlar; maxsus bilish, ko'nikma; o'qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligi; psixologik-pedagogik bilimlar; pedagogik bilimlar; diagnostika, prognostik, loyihalash, konstruktivlik, kommunikativlik, tashkilotchilik, tahlil qilish

11-Mavzu: Pedagoglik kasbining sathlarini tashkil etuvchi kompetensiyalar. (2 soat)

Insonni faoliyat va mulohaza o'zbeki sifatida tavsiflovchi kompetensiyalar. Insonning ijtimoiy hamkorligini va ijtimoiy muhitni ta'minlovchi kompetensiyalar. Inson faoliyatini ta'minlovchi kompetensiyalar. Kasbiy faoliyatning tanlangan sohasida muvaffaqiyatli ishlash ko'nikmalari va malakalari.

12-Mavzu: Pedagogik kreativlik. (2soat)

Kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlar, shaxs kreativ faoliyatining ikki jihatini yorituvchi test turlari, pedagogik kreativlik potentsialiga ega bo'lishi lozim bo'lgan qoidalar, pedagogning kreativlik potentsialini rivojlantiruvchi metodlar, pedagogik kreativlik malakalari, kreativ potentsialining tarkibiy asoslari, kreativlik potentsialining ustuvor tamoyillari.

13-Mavzu: Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar. (2soat)

Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar.

14-Mavzu: Hamkorlik pedagogikasining tasnifiy belgilarini. (2soat)

Mashg'ulotlarni online tizimida video anjumanlar va seminar-treninglar asosida tashkil etish; talabalar o'rtasidagi kommunikatsiyani jadallashtirish; talabalarning o'quv fanini o'rganish va o'zlashtirishga qiziqishlarini oshirishga yo'naltirilgan xususiy-metodik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish; talabalarni tyutorlik, fasilitatorlik faoliyatiga faol jalb etish va boshqalar.

15-Mavzu: Pedagoglik tyutorlik fasilitatorlik qobiliyatlari asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish amaliyoti. (2soat)

Loyihalar ustida ishlash tartibi va qoidalari. Individual loyiha ishlarini bajarishda tyutorning o'rni. Guruhiy loyihalarni amalga oshirish yo'llari va fasilitatorlik faoliyati.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademiya guruhiga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi. «Keys-stadi» texnologiyasi ishlatiladi, Keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Amaliy mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalar yoki interaktiv usullardan foydalanish uchun imkoniyatlar katta bo'ladi. O'qituvchi darsga kirib tashkiliy ishlarni o'tkazadi, auditoriyani darsga tayyorgarligi yozish va o'chirish vositalarining mavjudligi hamda o'quvchilarning davomati aniqlanadi. Amaliy mashg'ulot darslarida savol-javoblar, diskussiyalar tashkil qilinadi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiradi.

Amaliy mashg'ulotda ko'proq talabalar guruhini bir nechta kichik guruhlarga ajratib o'qitishning aqliy hujum, bahs-munozara, suhbat metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar talabalarni mavzu yuzasidan ko'proq mustaqil fikr yuritishga, o'z fikrini bayon etishga undaydi. Darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, diqqatlarini jamlashga o'rgatadi. Bundan tashqari amaliy mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning faoliyatini tog'ri va xolisona baholashga erdishi zarur. Shuningdek, baholarni e'lon qilib faol o'quvchilarning familiyalarini aytib rag'batlantirish va aksincha passiv, nutqi rivojlanmagan yoki uyatchan talabalarga yengil tanbeh berishi ham muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mashg'ulot darslarini dastur bo'yicha sifatli o'tilishini talabalar bilimining o'z vaqtida adolatli va xolisona baholanishini fandan

5.

V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar.

Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:

- pedagogik deantologiya fanining nazariy asoslariga oid;
- metodik jihatdan pedagogik-psixologik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilimga;
- pedagogik deantologiya fanining o'ziga xosliklarini hamda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olish haqidagi;
- pedagogik deantologiya faoliyatlarini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirish haqidagi *bilimga*;
- metodik jihatdan pedagogik-psixologik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash;
- pedagogik deantologiya fanining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish;
- pedagogik deantologiya faoliyatlarini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirish haqidagi *ko'nikmaga hamda malakalariga ega bo'ladi*

6.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

Grafik organayzerlar


Grafik organayzerlar ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida talabalar o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba'zilarini keltirilgan.

1) BBB jadvali. Barcha ma'ruza darslarida qo'llaniladi. BBB usuli ("bilaman", "bilishni xohlayman", "bilib oldim") orqali talaba o'zini kuzatishi, o'qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo'yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftoriga yozib qo'yadi. Dars so'ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo'yadi.

2) Insert usuli. Bu usul matnini o'zlashtirishda qo'llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o'z belgilarini qo'yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: "v" - zarur; "-" - xato; "+" - yangi; "!" - e'tibor qiling; "x" - ortiqcha; "*" - ko'chirish kerak; "?" - tushunarsiz va h.k.

3) Klaster sxemasi

Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, talaba o'tilgan mavzu bo'yicha klaster tuzishi mumkin. O'rtaga kalit so'z, tarmoqlarga unga bog'liq boshqa atamalar yoziladi.



tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

IV.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Pedagogik deontologiya – kasbiy xulq-atvor haqidagi fan.
2. Pedagogik deontologiya fanining maqsadi va vazifalari.
3. Pedagogik kompetentlik, professional kompetentlik. O'qituvchi kasbiy etikasiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.
4. Izohtli lug'atlar bilan ishlash va deantologiya atamasi haqida ma'lumot to'plash.
5. «Barkamol avlod orzusi» kitobini o'qib chiqish va asosiy fikrlarni konspekt qilish.
6. Sharq mutafakkirlari, chet el va Yevropa, O'zbekistonlik pedagog olimlarning deantologiya haqidagi fikrlarini o'rganish va to'plash.
7. Fakul'tetdagi dars va mashg'ulotlarda o'qituvchilar tomonidan auditoriya diqqatini jalb etish, magistrarga ta'sir etish, ular bilan munosabatga kirishish, o'rnatish bo'yicha qo'llanilayotgan usullarni o'rganish, to'plash, yozib borish.
8. Oliy o'quv yurti o'qituvchisi kompetentsiyalari.
9. «Muallim - qalb me'mori» (Malla Ochilov) kitobini o'qish, asosiy fikrlarni o'rganish va konspekt qilish.
10. Fakul'tetda dars jarayonida uchraydigan nizolarni o'rganish va yechimini tahlil qilishda o'qituvchining kompetentligi.
11. Mamlakatimizda pedagogik deontologiyaning rivojlanishi
12. Fakul'tet (o'rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji) o'qituvchilarining darslarini kuzatish va dars fragmentini yaratish.
13. Tanlangan mavzu asosida jamoaviy ijodiy ishning rejasi, senariysini tuzish.
14. O'z-o'zini tarbiyalash yoki o'z ustida ishlash shaxsiy dasturini tuzish.
15. Oliy ta'lim o'qituvchisining ish tajribasini o'rganish va umumlashtirish

ma'ruza olib boruvchi o'qituvchi muntazam nazorat qilib borishi shart. Shuningdek amaliyot o'qituvchisi bilan dastur bajarilishi uchun amaliy darslarda nimalarga alohida e'tabor qaratilishi, ma'ruzada mavzularni qaysi qismlari kam yoki ko'proq yoritilgani va boshqa o'quv-uslubiy masalalarda maslahatlashib fikrlashib turishlari lozim.

III.1. Amaliy mashg'uloti mavzulari

1-mavzu: Pedagogik deantologiya fani haqida ma'lumot. (2soat)

Reja:

1. Pedagogik deontologiya – kasbiy xulq-atvor haqidagi fan.
2. Pedagogik deontologiya fanining maqsadi va vazifalari.
3. Fanning boshqa pedagogik fanlar bilan aloqadorligi.

2-mavzu: Pedagogik deontologiya uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni. (2soat)

Reja:

1. Pedagogik deontologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi
2. Pedagogik deontologiya uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni.

3-mavzu: O'qituvchi kasbiy etikasiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar. (2soat)

Reja:

1. Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar
2. O'qituvchining kasbiy etikasi

4-mavzu: Pedagogik deontologiya fanining maqsadi va vazifalari. (2soat)

Reja:

1. Fanning maqsadi va vazifalari
2. Fanlar tizimidagi o'rni
3. Fanning asosiy vazifalari

5-mavzu: Pedagogik deantologiya fanining metodologik tamoyillari. (2soat)

Reja:

1. Fanning asosiy tamoyillari
2. Pedagogik deantologiya fanining metodologik tamoyillari

6-mavzu: Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik deontologiyaning rivojlanishi. (2soat)

Reja:

1. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik deontologiyaning paydo bo'lishi.
2. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik deontologiyaning rivojlanishi.

7-mavzu: Kompetensiyaning jamiyatdagi o'rni va pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari. (2soat)

Reja:

1. Kompetensiyaning jamiyatdagi o'rni
2. Pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari.

8-mavzu: Pedagogik mahorat va kompetensiya mezonlari. (2soat)

Reja:

1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha
2. Kompetensiya mezonlari
3. Pedagogik mahoratning asosiy tushunchalari

9-mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy aspektlari. (2soat)

Reja:

1. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy aspektlari.
2. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning amaliy aspektlari.

10-mavzu: Oliy ta'lim o'qituvchisi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar. Professiogramma. (2soat)

Reja:

1. Professiogramma
2. Oliy ta'lim o'qituvchisi malakasiga ega bo'lish uchun qo'yiladigan talablar

11-mavzu: Pedagogik kasbining sathlarini tashkil etuvchi kompetensiyalar. (2soat)

Reja:

1. Pedagogik kasbining sathlari
2. Pedagogik kasbining sathlarini tashkil etuvchi kompetensiyalar

12-mavzu: Pedagogik kreativlik haqida tushuncha. (2soat)

Reja:

1. Pedagogik kreativlik.
2. Pedagogik kreativlikni shakllantiruvchi omillar
3. Pedagogik kreativlik sifatleri

13-mavzu: Hamkorlik pedagogikasining kontseptual g'oyalari. Hamkorlik pedagogikasining tasnifiy belglari. (2soat)

Reja:

1. Hamkorlik pedagogikasining kontseptual g'oyalari
2. Hamkorlik pedagogikasining tasnifiy belglari.

14-mavzu: Pedagogik tyutorlik fasilitatorlik qobiliyatlari asosida loyihaviy faoliyatni tashkil etish amaliyoti. (2soat)

Reja:

1. Pedagogning tyutorlik qobiliyati
2. Pedagogning fasilitatorlik qobiliyatlari

15-mavzu: Guruhiy loyihalarni amalga oshirish yo'llari va fasilitatorlik faoliyati. (2soat)

Reja:

1. Guruhiy loyihalarni amalga oshirish yo'llari
2. Fasilitatorlik faoliyati

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR.

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba